MEDIATEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MUSTAQIL AXBOROT IZLASH VA BAHOLASHGA O‘RGATISH METODIKASI

Komilova Parizoda Kamoliddinovna
Samarqand davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘quvchilarni mediatexnologiyalar asosida mustaqil axborot izlash, uni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi yoritilgan. Media va axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishning psixologik va ijtimoiy asoslarini tahlil qilish, yoshlar va o‘qituvchilar o‘rtasida media savodxonlikni oshirishning samarali yo‘llarini aniqlashdan iboratdir.*

Kalit so‘zlar: *mediatexnologiya, axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta’lim, interaktiv metodlar, raqamli kompetensiya.*

Kirish

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat hayotida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Raqamli texnologiyalarni hayotga keng joriy etish bugungi taraqqiyotning eng muhim sharti hisoblanadi.” Bu fikr media va axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish zaruratini yanada kuchaytiradi. Chunki axborot oqimi ortib borayotgan bir paytda inson ongi va psixikasini himoya qilish, foydali ma’lumotni tanlab olish ko‘nikmalarini shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Bugungi yoshlar internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar orqali katta hajmdagi ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniga egadirlar. Ammo axborotlarning barchasi ishonchli emas. Soxta, manipulyativ va agressiv mazmundagi kontent insonning emotsional barqarorligiga salbiy ta’sir etadi. Shu sababli media madaniyat, axborot filtrlash ko‘nikmasi, raqamli gigiyena va onlayn muloqot etikasini o‘rgatish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Asosiy qism

Mediatexnologiyalar — bu axborotni yaratish, saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonlarini amalga oshiruvchi zamonaviy texnologiyalar majmuasidir. Ular tarkibiga internet tarmoqlari, multimedia vositalari, elektron darsliklar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va turli raqamli platformalar kiradi.

Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan dunyoda ma’lumotlar oqimi tobora kengayib bormoqda. Barcha axborot manbalari – ijtimoiy tarmoqlar, yangilik saytlari, bloglar va boshqa raqamli platformalar foydalanuvchilarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ammo bu axborotlarning barchasi to‘g‘ri va haqqoniy emas. Ba’zan dezinformatsiya, propaganda yoki noto‘g‘ri axborotlar foydalanuvchilarni chalg‘itadi, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga olib keladi va jamiyatdagi turli salbiy jarayonlarni kuchaytiradi. Ayni shunday jarayonlarda aholining turli tahdidlar va yolg‘on axborotlardan himoya qilish uchun mediasavodxonlik eng muhim vositalardan biriga aylanadi. Xo‘sh, mediasavodxonlik bu nima? Mediasavodxonlik

– bu axborotni tanqidiy qabul qilish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi zamonaviy ko‘nikma bo‘lib, turli media vositalarida tarqatilayotgan ma’lumotlarning mazmuni, manbalari, maqsadlari va ta’sirini anglash imkonini beradi. Mediasavodxonlik shaxsning faqatgina axborot iste’molchisi bo‘lib qolmasdan, o‘zaro muloqotda axborotni to‘g‘ri va samarali uzata olishi, noto‘g‘ri ma’lumot va dezinformatsiyadan himoyalanishi, media vositalarini to‘g‘ri boshqarishi uchun muhimdir. Bu insonlarga nafaqat mavjud axborotni tahlil qilish, balki yangiliklar va hodisalarni tanqidiy nazar bilan baholash, ommaviy axborot vositalarida paydo bo‘layotgan fikrlarga nisbatan mustaqil qarash shakllantirish imkoniyatini beradi. Ayni shu imkoniyatlar bugungi kunda mediasavodxonlikning ahamiyati tobora oshib borayotganligini ham ko‘rsatadi. Bu, shuningdek, jamoatchilikka axborotning qanchalik to‘g‘ri ekanini aniqlash va unga tanqidiy yondashishga ham ko‘maklashadi. Mediasavodxon shaxs o‘ziga yetib kelgan ma’lumotni chuqur tahlil qilib, uning maqsadi, manbasi, kim tomonidan va nima uchun tarqatilganini tushunadi. Bu esa, o‘z navbatida, insonning o‘z fikrini shakllantirishda xolislikni saqlashga yordam beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mediasavodxonlikning ta’limdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin:

1. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. O‘quvchilar turli axborotlar asosida to‘g‘ri xulosalar chiqara olishlari, muammolarni tahlil qilib, ularga nisbatan o‘z fikrlarini mustaqil ifoda etishlari kerak. Mediasavodxonlik bunga ko‘maklashadi.

2. Noto‘g‘ri ma’lumotlarga qarshi immunitet hosil qilish. O‘quvchilarni dezinformatsiya va manipulyatsiyadan himoyalashda mediasavodxonlik muhim rol o‘ynaydi. Bu ularni yolg‘on ma’lumotlardan himoya qilish va to‘g‘ri ma’lumot asosida qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

3. Texnologiyadan oqilona foydalanish. Media vositalaridan oqilona foydalanishni o‘rgatish orqali o‘quvchilar axborotning o‘z hayotiga ijobiy ta’sirini oshiradi va salbiy ta’siridan himoyalanadi.

4. Ijtimoiy mas’uliyat va faoliyatni rivojlantirish. Axborot oqimlarida faol va mas’uliyatli shaxs bo‘lish uchun mediasavodxonlikni shakllantirish zarurdir.

Bu orqali o‘quvchilar ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishlari va ongli ravishda axborot tarqatishlari mumkin bo‘ladi.

Mediatexnologiyalar nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini, xususan, tanqidiy fikrlash va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa

Mediatexnologiyalar asosida o‘quvchilarni mustaqil axborot izlash va baholashga o‘rgatish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mediatexnologiyalar yordamida o‘quvchilar turli manbalardan ma’lumot olish, ularni tahlil qilish va xulosa chiqarishni o‘rganadilar. Natijada ta’lim jarayoni

yanada interaktiv, samarali va o‘quvchi markazli tus oladi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh va bilimli kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Takliflar. Ta’lim jarayonida mediatexnologiyalardan muntazam va maqsadli foydalanishni yo‘lga qo‘yish zarur.

• O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim.

• O‘quvchilarga ishonchli axborot manbalarini tanlash va baholash mezonlarini amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatish kerak.

• Dars jarayonida interaktiv metodlar va multimedia vositalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

• Elektron ta’lim resurslari va platformalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
2. Potter W.J. Media Literacy. – Routledge, 2018.
3. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum. – Paris, 2021.
4. Karimova S. Axborot texnologiyalarining psixologik ta’siri. – Toshkent, 2020.
5. Jo‘rayev A. Yoshlar va media madaniyat. – Toshkent, 2019.
6. To‘xtayev N. Axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent, 2021.
7.T.Z. Teshaboyev Axborot kommunikatsiya texnalogiyalari va telekommunikatsiya. 2019-yil Farg‘ona.
8.Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish. Ma’ruzalar to‘plami. Toshkent 2017
9.K. Mullaboyev Maktabgacha ta’lim metodikasi 2019-yil.
10. Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. -T.: 2002-148 bet.
11. Adilova S. Multimedia vositalari va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash.// Pedagogik ta’lim. 2001.-№2 .20-21 bet